

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Rektor

Sh. Sirojiddinov

2023-yil

-avgust

NAVOIYSHUNOSLIK

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent – 2023

Semestr	Fan/modul nomi	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024								
				ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
						Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy laboratoriya			
4	Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosi	4	4	60	20	20	20	0	60	120		
5	Navoiy asarlarini sharhlash mezonlari	5	4	60	20	20	20	0	90	150		
	Jami:	9	8	120	40	40	40	0	150	270		

I. FANNING MAZMUNI

Alisher Navoiy o'zbek xalqining ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum etgan so'z san'atkoridir. Shu ma'noda mazkur fanning asosiy maqsadi – Alisher Navoiyning boy adabiy va ilmiy merosini filolog talabalarga ta'lim berish orqali ularni yuksak ma'naviyatli va keng ma'rifat sohibi etib tarbiyalashdir. Yoshlarning ma'naviy dunyosini milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o'rganish orqali yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun "Navoiyshunoslik" fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- talabalarga Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, tafakkur dahosi haqida ma'lumot berish;
- Navoiyning komil inson ma'naviyati haqidagi qarashlarini ilmiy jihatdan asoslangan dalillar bilan chuqur o'rganish va hayotga tatbiq etish usul va vositalarni aniqlash;

2

- badiiy ijod namunalari o'rganish orqali badiiy so'z shukhi, o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish **malakasini shakllantirish;**

- Navoiy asarlarining o'zbek xalqi ma'naviyatining shakllanishi va rivojiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumot berish orqali talabalarda milliy ma'naviyatimizning teran ildizlari haqida **tasavvur hosil qilish;**

- Alisher Navoiyning badiiy olami tabiati va qonuniyatlarini tadqiq etish, asarlari mohiyatini teran anglash, to'g'ri tahlil va **tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish;**

- Egallangan bilim va ko'nikmalarni jamiyatda ezgu insoniy fazilatlarining barqaror bo'lishiga yo'naltirish va h.k.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ushbu fan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, uning asarlari poetikasi, shoir lirikasi, xususan, "Xazoyin ul-ma'noiy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi janrlarni, dostonlari va nasriy asarlarini o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

"Navoiyshunoslik" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "Navoiyshunoslik" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur dahosi, o'zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqida tavsifga ega bo'lishi;

- Navoiy asarlarining o'rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an'anasi, tatabbu, nazira, tavr, muxtara g'azallarning o'ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo'llanilgan qo'fiya unsurlari, badiiy san'atlarining hosil bo'lish yo'llari, majoz tariqida yozilgan she'rlarda qo'llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, Navoiy asarlari tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o'ziga xos jihatlari, ma'no qatamlari, o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq masalalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi** talab etiladi.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.

3

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* yoki *test* shaklda o'tkaziladi.

Izoh: *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalar bilim baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr lay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari taqdimot, ma'ruza, tarqatma materiallar asosida olib boriladi.

IV semester

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
I-bob (modul). Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi ko'lami			
1	Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi. Hayotiga doir muhim ma'lumotlar	Navoiyshunoslik tarixidan. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari. <i>Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati</i> . Shoir hayoti va ijodining manbalari. Zamondoshlarining asarlarida. XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlardagi ma'lumotlar.	2
2	Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari	Devonlari. Ikk devon. Oqquyunli muxlislar devoni. "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari. "Badoyi' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniyy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi. Debochada kulliyotning tuzilishi va devonlarning yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. «Devoni Fontisning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari, Devondagi g'azallar talqini.	2
3	Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. "Hayrat ul-abror".	Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy "Xamsa" sifatida. "Hayrat ul-abror" mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.	2
4	"Farhod va Shirin" dostonining timsollar olami. "Layli va Majnun" dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanishi	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'lga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostonidagi ramziy timsollar. Doston badiiyati. «Layli va Majnun» – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzub timsoli. Dostonidagi boshqa timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari.	2
5	"Sab' ai sayyor" dostonining tarkibiy tuzilishi, hikoyatlar tahlili.	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.	2

seminar

6	"Saddi Iskandariy" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	"Saddi Iskandariy" – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli.	2
7	Alisher Navoiyning ilmiy merosi. Ma'rifiy-ta'limiy, diniy va tasavvufiy asarlari.	<p><i>Adabiyotshunoslik asarlari.</i> "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til mubohasasi.</p> <p><i>Tarixiy asarlari.</i> "Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.</p> <p><i>Yodnomalar</i> – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. "Xamsat ul-mutahayyirin" asarining mundarijasi. «Holoti Sayyid Husan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari.</p> <p>"Arba'in" va hadislarini she'rga solish an'anasi. "Nazm ul-javohir" asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini. "Siroj ul-mustimin"da ta'limiy masalalar.</p> <p>"Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari. "Vaqfiya" asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq masalalar. "Munojot"da tavba-fazaru va Haqqa bo'lgan ishq ohanglari.</p> <p>"Munshaot" – turkiy epistolalar janrining nodir namunasi.</p> <p>«Mahbub ul-qulub» asari. Tarkibiy tuzilishi; ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.</p> <p><i>Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.</i> "Sab'at abhur" va "Risolai tir andoxtan" asarlari.</p>	2
8	Navoiy poetikasi haqida umumiy ma'lumot. Navoiy she'riyati va janrlar poetikasi.	<p>Navoiy poetikasi o'zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning "e'joz maqomida" ekanligi.</p> <p>Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar. "Xazoyin ul-maoniyy" kulliyotining janr xususiyatlari. G'azal va mustazod janrlari. Musammatlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari. Tarkibband, tarji'band, soqiyнома va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.</p>	2
9	Alisher Navoiy aruzi. Ruboiy	Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxdislar tartib	2

	vaznlari.	bergan devonlarning vazni xususiyatlari. "Badoyic' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida qo'llanilgan bahrlar. "Xazoyin ul-maoniyy" kulliyotining vazni xususiyatlari. Kulliyotning vazni ko'rsatkichlari.	
		<i>Ruboiy vaznlari.</i> Axrab va axram shajarasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o'ri. Axtam shajarasiga xos xususiyatlar. "Mezon ul-avzon"da aruz masalalari.	
10	Badiiy san'atlar va ularning Navoiy she'riyatidagi o'ri. Alisher Navoiy ijodida qofiya tizimi	<p>Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarining Navoiy lirikasidagi o'ri. "Xamsa" dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar.</p> <p>Alisher Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi. Qofiya unsurlari. Shoir ijodida qo'llanilgan qofiya turlari. O'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlari. Tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlari. Radif va hojib. Saj' va qofiya munosabatlari.</p>	2
		Jami	20 s.

2. Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzuga mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Lirik merosi badiiyati			
1	Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida (Xondamir asarlari misolida)	Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari.	2
2	"Xazoyin ul-maoniyy" kulliyoti	"Xazoyin ul-maoniyy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.	2
2-bob (modul). Epik asarlari badiiyati			
3	"Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar	"Hayrat ul-abror" mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili.	2
4	"Farhod va Shirin" dostonida yetakchi timsollar tizimi.	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar.	2
5	"Layli va"	«Layli va Majnun» – pok va yuksak muhabbat	2

	Majnun'ning tasavvufiy talqini	ifodasi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti, Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami.	
6	"Sab' ai sayyor" dostonida "yetti.ik"lar tahlili	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
7	"Lison ut-tayr" dostonida tasavvuf masalalari	Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat. Dostondagi vodiylar tavsifi.	2
3-bob (modul). Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari.			
8	"Mabub ul-qulub" – axloqiy-talimiy asar	«Mabub ul-qulub» asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
9	Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari. Diniy-tasavvufiy asarlari.	"Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.	2
10	Navoiy lirikasiga mansub janrlar tavsifi. "Xamsa"da vazn va mazmun munosabati	Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Ritmik urg'u va "Xamsa" dostonlari.	2
Jami:			20 s.

1. Seminar mashg'ulotlar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

No	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). "Xamsa" dostonlari mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari			
1	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik	2

8

		muammolari.	
2	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Doston badiiyati.	2
3	"Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Dostonning badiiy xususiyatlari.	2
4	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili.	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
5	"Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar voqeasi va keltirilgan hikoyatlar mutanosibligi.	Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli.	2
6	"Lison ut-tayr" dostonidagi vodiylar tavsifi va hikoyatlar. "Shayx San'on hikoyati"	Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat.	2
2-bob (modul). Navoiyning badiiy mahorati.			
7	Navoiyning tarixiy asarlari va yodnomalari.	Tarixiy asarlari. "Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida. Yodnomalar – memuar janrining yuksak namunasi sifatida.	2
8	"Xamsa" dostonlarida ritmik variatsiyalar.	Ritmik urg'u va "Xamsa" dostonlari.	2
9	Navoiy musammatlari poetikasi. Navoiy tarkibband va tarji'bandlari	Musammatlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari. Tarkibband, tarji'band, soqiyнома va masnaviy janrlari.	2
10	Navoiyning badiiy mahorati	Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarining Navoiy lirikasidagi o'rni.	2
Jami:			20 s.

4. Mustaqil ta'lim

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;

9

- Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash; Uiy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'u lot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Navoiyning lirik asarlari talqini				
1	Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Navoiy shaxsiyati va ijtimoiy faoliyatiga doir qarashlar.	ma'ruza	"Makorim ul-axloq" asarini mustaqil mutolaa etish.	2
2	Navoiy g'azallarining mavzu bo'yicha har bir turiga g'azal yodlash va ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	seminar	"Navoiy g'azaliyoti talqinlari" kitobi ustida ishlash.	2
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari				
3	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'rganish.	2
4	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
5	"Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
6	"Sab'ay sayyor" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
7	"Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
3-bob (modul). Lirik asarlari badiiyati, mavzu mundarijasi				
8	"Lison ut-tayr" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
9	"Munshaot" asaridagi maktublar tasnifi.	amaliy	Maktublarni o'qish	2
10	"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tilshunoslik masalalari.	amaliy	Asar matnini o'qib o'rganish	2
11	"Majolis un-nafoyis"dagi 2-3-majlislar.	amaliy	Majlislar mutolaasi	2
12	Navoiyning 10 ta g'azalini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish	amaliy	G'azallarni mustaqil tahlil etish	2
13	"Xazoyin ul-maoniy"dagi janrlarni "Devoni Foni"y"dagi janrlar bilan qiyoslash	amaliy	lkkala manbani qiyosiy tahlil asosida o'rganish	2

14	Navoiy lirikasidagi ma'naviy san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi ma'naviy san'atlarni aniqlash	2
15	Navoiy lirikasidagi lafziy san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi lafziy san'atlarni o'rganish	2
16	Navoiy lirikasidagi musharak san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi musharak san'atlarni aniqlash	2
17	"Hayrat ul-abror"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish	2
18	"Farhod va Shirin"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini bilish	2
19	"Layli va Majnun" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish	amaliy	10 baytni tanlab, ritm ustida ishlash	4
20	"Sab'ay sayyor" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish	4
21	"Saddi Iskandariy"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini yoritish	4
22	Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti va "Devoni Foni" bilan to'liq tanishib chiqish. Hamd, na't, orifona, oshiqona, rindona mavzudagi g'azallaridan yod olish va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	amaliy	"Xazoyin ul-maoniy" va "Devoni Foni" matlari ustida ishlash, g'azal yodlash mashqini bajarish	8
23	Navoiyning qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan namunalar yodlash va sharhlab kelish.	amaliy	Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil va muttasil ishlash	4
Jami:				60 s.

Ma'ruza mashg'ulotlari

V semestr

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari			
1	Navoiy asarlarini sharhlash tarixi va	Badiiy matn talqini asoslari. Sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil. Navoiy asarlariga sharh	2

	tajribalari haqida. Lirik asarlarni sharhlash prinsiplari	va izoh yozish an'anasi (lug'atlar, nasriy "Xamsa"lar, vazn ko'rsatkichlari)	
2	Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari.	G'azalning yaratilish davri, qaysi devonga mansubligi, mavzui, murakkab so'zlar lug'ati, baytlarning nasriy bayoni, shohbaytlar talqini, g'azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.	2
3	Qit'alarni sharhlash mezonlari. Kichik lirik janrlar sharhi: ruboiy, tuyuq va fardlar. Muammolarni sharhlash yo'llari.	Mavzu mundarijasiga ko'ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-talimiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit'alar. Qit'alarning sarlavhalari va mazmun-mohiyati orasidagi uyg'unlik. Ruboiylarning mavzu mundarijasiga ko'ra tasnifi. Tuyuqlarda shakldosh so'zlar va ma'no tanosubi. Fardlarda Navoiy hikmatlarining aks etishi.	2
4	Navoiy qasidalarini sharhlashdagi muhim mezonlar	"Sittai zaruriya" va "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining arxitektonikasi va kompozitsion qurilishi. "Hiloliya" qasidasining g'oyaviy mazmuni, syujeti, timsollar olami. Qasida badiiyati, unda tajdidi matla' san'atining yetakchilik qilishi.	2
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlarini sharhlash			
5	"Xamsa" dostonlarini sharhlash tajribasi va prinsiplari. "Hayrat ul-abror"ni sharhlab o'rganish.	Axloqiy-didaktik, ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, tasavvufiy-falsafiy dostonlarni sharhlashda har birining o'ziga xos xususiyatlari. "Xamsa" dostonlarini nasriylashtirish an'anasi. "Xamsa" tabdillari. "Xamsa" sarlavhalari. Basmala bobining qiyosiy tahlili. Hamd, munajat, na't va me'rojnomalardagi poetik tafakkur. Dostonda ko'ngil obrazining talqini.	2
6	"Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlarini sharhlashda ramziy ifodalarning ahamiyati	Muqaddimaviy boblarda shoir dunyoqarashining in'ikosi. Dostonda ramziy timsollar talqini. Ramziy ifodalar muhim ochqich sifatida Hamd va na'tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg'unligi. Dostondagi tun ta'rifi bobining g'oyaviy-badiiy talqini. Layli va Majnun – husn va ishq mazhari.	2

7	"Sab'ai sayyor" dostonini sharhlab o'rganish	Dostondagi yetti raqamining "sir"lari. Muqaddimada salaflar dostonlariga munosabat. Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi.	2
8	"Saddi Iskandariy" dostonini sharhlab o'rganish	Tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili.	2
9	"Lison ut-tayr" dostonini sharhlab o'rganish	Ramziylik. Vodiylar tavsifi, hikoyatlar sharhi.	2
10	Navoiy badiiy nasrini sharhlash tamoyillari.	Axloqiy-talimiy asarlarni sharhlash. "Mahbul qulub", "Munshaot", "Vaqfiya" va b.	2
Jami			20 s.

Amaliy mashg'ulot mavzulari

V semestr

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Lirik asarlarini sharhlash			
1	Hamd g'azallar sharhi	"Ashraquat min...", "Zihi..." g'azallarini o'qish, sharhlash.	2
2	Na't gazallar sharhi	"Odamki bashar nasli silkiga..." g'azali tahlili.	2
3	Irfoniy (tasavvufiy) mazmundagi g'azallarni sharhlash.	Orifona g'azallar mohiyatini sharhlash.	2
4	Ishqiy mavzudagi g'azallarni zohiriy va botiniy ma'nolar uyg'unligida sharhlash.	Oshiqona ("Qaro ko'zum...", "Tun oqshom keldi...") g'azallar sharhi.	2
5	Qit'alarni sharhlash xususiyatlari.	Axloqiy-talimiy qit'alarni sharhlash.	2
6	Masnaviy (Sayyid Hasan Ardasherga she'riy maktub)ni shoir yashagan davr va uning hasbi holi bilan bog'lab sharhlash.	Yaratilish tarixi, adresati, tarkibiy tuzilishini aniqlash, tahlil qilish.	2
7	"Nazm ul-javohir"dagi she'rlarni manbalariga asoslanib sharhlash.	Ruboiylarni ma'no xususiyatiga ko'ra tahlil qilish, yod olish.	2
8	"Arba'in"dagi to'rtliklarni manbalariga (hadislarga) asoslanib sharhlash.	"Arba'in"da shoirning badiiy mahoratini tahlil qilish.	2

3-bob (modul). Nasriy asarlarini sharhlash			
9	"Munajat" asari sharhi.	Munajotning badiiy xususiyatlari, mumtoz nasr uslubi va asar tili, tuzilishi va mazmunini tahlil qilish.	2
10	"Vaqiya"ni sharhlash asosida shoir biografiyasiga oid muhim faktlarni tiklash.	Asardagi shoirning obodonchilik ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyatini yoritish, tarjimai holiga bog'lab talqin qilish.	2
Jami:			20 s.

Seminar mashg'ulotlar
V semestr

№	Seminar mashg'uloti mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Masnaviy dostonlarni sharhlash			
1	"Hayrat ul-abror" debochasi sharhi: hamd va na't boblarini sharhlab o'rganish masalalari.	Basmala bobining qiyosiy tahlili. Hamd, munajat, na't va me'rojnomalardagi poetik tafakkur.	2
2	"Layli va Majnun" dostoni bosh qahramoni Majnunning Ka'badagi munajoti sharhi.	Layli va Majnun – ishq mazhari. Majnun "munajotnomasi" sharhi.	2
3	Farhod va Majnun timsollarini qiyoslash, o'xshash va farqli jihatlarini sarhlab o'rganish.	Obrazlarni qiyoslash. N.Komilovning "Ishq otashining samandari", "Suqrot – komil inson timsoli" maqolalarini o'qish.	2
4	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyatlarni qoliplovchi hikoyaga bog'lab sharhlash.	Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi.	2
5	"Saddi Iskandariy" dostonidagi xulosaviy boblar sharhi. Iskandar vasiyati mazmuni.	Tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili. Dostondagi hikmatlar sharhi. Xotimaviy bobda "Xamsa" takmili bilan bog'liq fikrlar.	2
6	"Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodiy ta'rifini ularga ilova qilingan hikoyatlariga bog'lab sharhlash.	Hikoyatlar mazmunini sharhlash, vodiyarga bog'lab izohlash.	2
1-bob (modul). Nasriy asarlarini sharhlash			
7	"Mahabbat ul-qulub" asarini	Asarni qismlarga bo'lib sharhlash,	2

8	sharhlash xususiyatlari va unda muallif qarashlarining o'rni	Navoiyning axloqiy-ta'limiy qarashlarini shaxs tarbiyasi bilan bog'lab talqin qilish.	2
8	"Majolis un-nafois" tazkirasidagi Navoiyning badiiy ijodga va ijodkorlarga munosabatini sharhlab o'rganish.	Asarni qismlarga bo'lish, har biriga xos xususiyatlarni belgilash. Navoiyning acabiy-tanqidiy qarashlari asosida badiiy ijod va ijodkorga bergan bahosi, mulohazalarini tahlil qilish	2
9	"Tarixi anbiyo va hukamo" asarini sharhlash	Asarni diniy asarlarga qiyosan tahlil qilish.	2
10	"Holoti Sayyid Hasan Ardashar" va "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarini manojib janri talablari asosida sharhlash.	Manojib janriga xos xususiyatlarni belgilash, shoirning yaqin kishilar bilan munosabatlari, hayotiy faoliyatiga doir muhim manba sifatida tahlil qilish.	2
Jami:			20 s.

4. Mustaqil ta'lim

Talaba mustaqil ishini asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
 - Ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
 - Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- Uy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Lirik asarlarini sharhlash				
1	Navoiy "Xazoyin ul-ma'noiy" kulliyoti va "Devoni Foniy" bilan to'liq tanishib chiqish.	ma'ruza	Hamd, na't, orifona, oshiqona, mavzudagi g'azallaridan yod olish va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	4
2	Navoiyning qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan namunalarni yodlash va	amaliy	Qit'a, ruboiy, fard va muxammaslardan namunalarni yodlash.	4

	sharhlab ketish.			
3	Rindona g'azallarni sharhlash.	seminar	G'azal yod olish.	4
4	"Devoni Foniyy" dagi tatabbu' g'azallar sharhi (F. ofizga tatabbu'lar misolida).	ma'ruza	G'azallardan namuna yodlash	4
5	"Devoni Foniyy" dagi qit'alar sharhi.	amaliy	Qit'alarni mazmun va shakl uyg'unligida tahlil qilish	4
6	Muxammas va musaddaslarni sharhlash xususiyatlari.	seminar	Janr xususiyatlarini belgilash, mazmunan tahlil qilish	4
7	Mustazodlarni mazmun va shakl uyg'unligi asosida sharhlash.	ma'ruza	Janr xususiyatlarini belgilash, mazmunan tahlil qilish	4
8	Tarji'bandlar sharhi ("Badoye ul-vasat" devonidagi tarji'band misolida).	amaliy	Mazmunini sharhlash.	4
9	Tarkibbandni sharhlashda falsafiy mazmunni idrok etish va tarixiy shaxslar haqidagi bilimlarning ahamiyati.	seminar	Shakl, mazmun, badiiy san'atlar, obrazlar olami va badiiyati nuqtai nazaridan tahlil qilish.	4
10	Soqiynomani sharhlashdagi muhim xususiyatlar.	ma'ruza	Soqiynomadagi timsollar mazmunini ochish, sharhlash.	4
11	Navoiy qasidalar sharhi ("Hiloliya" qasidasi).	amaliy	Qasidani shori mahorati, tarixiy voqelik bilan bog'lab sharhlash.	4
12	"Fusuli arbaa" qasidalarini sharhlab o'rganish.	seminar	Qasidalar badiiyatini tahlil qilish.	6
13	"Sittayi zaruriya" qasidalarini sharhlash mezonlari ("Ruh ul-quds" va "Ayn ul-hayot" qasidalarini misolida).	ma'ruza	Qasidalar badiiyatini tahlil qilish.	4
14	"Sittayi zaruriya" qasidalarini sharhlash mezonlari ("Tuhfat ul-afkor" qasidasi misolida).	amaliy	Qasidalar badiiyatini tahlil qilish.	4

16

2-bob (modul). Epik va nasriy asarlarini sharhlash				
15	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	ma'ruza	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
16	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
17	"Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	seminar	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
18	"Sab'ayi sayyor" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	ma'ruza	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
19	"Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
20	"Lison ut-tayr" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	ma'ruza	Dostonni boblar bo'yicha tavsiflash, kompozitsiyasi, mazmuni, g'oyasi kabi xususiyatlarini ochish.	4
21	"Majolis un-nafois" dagi 2-3-majlislarni o'rganib, sharhlab kelish.	amaliy	Mazkur majlisdagi shoirlarni hayoti va ijodi, Navoiyning ularga bergan bahosini izohlash.	4
22	"Nasoyim ul-muhabbat" da zikr etilgan shayxlar bilan bog'liq hikoyatlar sharhi.	seminar	Hikoyatlardagi tasavvufiy mazmunni ochish.	4
Jami:				90 s.

7. Foydalaniladigan adabiyotlar va internet manbalari ro'yxati

- Asosiy adabiyotlar**
1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunodlik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
 2. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.: TAMADDUN, 2016.
 3. Сирожидинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типология, текстология тҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.

17

4. Исохоков Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
5. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005
6. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: TAMADDUN, 2016.
7. Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. – Т.: Камалак, 1991.
8. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Т., 2011.
9. Алишер Навоий: қомусий дугат. 1-2-жилдлар /Маъсул муҳаррир Ш. Сирожидинов. – Т.: Шарқ, 2016.
10. Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 208.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жилдлар. – Т.: Фан, 1987-2003.
4. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. – Т.: Гафур Ғулом нашриёти, 2011.
5. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Адабиёт, 2021.
6. Комилов Н. Тасавуф. – Т.: Moʻvoroʻnnahr - Oʻzbekiston NMIY, 2009.
7. Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Oʻzbekiston, 2016.
8. Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғзалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги / Истиклол даври навоийшунослиги. – Тошкент: Tamaddun, 2022.
9. Тожибоева О. Алишер Навоий “Хамса”сининг насрий баёнлари: тамойил, мезон ва услуб / Истиклол даври навоийшунослиги. – Тошкент: Tamaddun, 2022.
10. Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Мухаммад Фузулий “Лайли ва Мажнун” достонларининг киёсий таҳлили. – Тошкент: “Bookmany print”, 2023.

Internet saytlari

1. www.alishernavoioy.uz
2. www.zivo-net.uz
3. www.literature.uz
4. www.kutubxona.uz

8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202__-yil “ ” “ ” dagi “ ” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

“O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrası mudiri, f.f.d., prof.

N. Jabborov

(imzo)

Tuzuvchilar:

Mullaxo'jayeva K. *(imzo)*
ToshDO'TAU, “O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

Yusupova D.R. *(imzo)*
ToshDO'TAU, “O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrası prof., filologiya fanlari doktori.

Tojiboyeva O. *(imzo)*
ToshDO'TAU, “O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrası dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

To'xliyev B. *(imzo)*
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori;

Jo'raqulov U. *(imzo)*
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori.